Biroq shuni ta'kidlash kerakki, hozirgi kunda O'zbekistonda yashil moliyalashtirish institutsional jihatdan fragmentatsiyalashgan (bo'lingan) bo'lib, milliy yashil taksonomiya, yashil budjetlashtirish, yashil obligatsiyalarni amaliyotga joriy etish hamda ularning monitoringi yagona tizim doirasida integratsiyalashmagan. Yashil moliyalashtirish oqimining yetarli darajada shakllanmaganligi sababli iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarida yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida uzilishlar yoki kechikishlar kuzatilishi mumkin.



Ushbu tadqiqotda O'zbekistondagi "yashil" moliyalashtirish tizimining joriy holati tahlil qilingan holda, "Integratsiyalashgan yashil moliyalashtirish arxitekturası" (IYMA) konsepsiyasini ishlab chiqish yuzasidan takliflar tayyorlanadi.

Taklif etilayotgan konsepsiya yashil moliyalashtirishni yagona model asosida shakllantirishni ko'zda tutib, uch asosiy yo'nalishni, ya'ni milliy yashil taksonomiyani takomillashtirish va uni iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarida qo'llash (birinchi yo'nalish), davlat, xususiyl hamda xalqaro moliyaviy resurslarni muvofiqlashtirilgan holda boshqaruvchi Milliy Yashil Iqtisodiyot Jamg'armasini tashkil etish (ikkinchi yo'nalish), shuningdek, yashil moliyaviy oqimlarni real vaqt rejimida hisobga olish va ochiq monitoringni ta'minlaydigan raqamli tizimni yaratish (uchinchi yo'nalish) orqali ularning o'zaro integratsiyasini nazarda tutadi.

Mazkur elementlarning yagona arxitektura doirasida integratsiyalangan tarzda belgilanishi O'zbekistonda yashil moliyalashtirish tizimini takomillashtirishning konseptual modelini shakllantiradi hamda ushbu yo'nalishni ilmiy asosda o'rganish uchun muhim zamin yaratadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oxirgi yillarda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida yashil moliyalashtirishning dolzarbligi nafaqat ilmiy va nazariy adabiyotlarda aks ettirilmoqda, balki siyosiy maydonlarda ham kun tartibida turibdi. Yashil moliyalashtirishni amaliyotga joriy etishdagi dastlabki qadamlardan farqli ravishda, hozirgi bosqichda unga iqtisodiy, institutsional va texnologik transformatsiyalarni uyg'unlashtiruvchi tizimli mexanizm sifatida qarash maqsadga muvofiqdir.

Xalqaro moliya institutlari hisobotlariga [1] tayanadigan bo'lsak, 2060-yilgacha mamlakatning yashil iqtisodiyotga o'tish yo'nalishida strategik jihatdan eng muhim soha — energetika sohasida uglerod neytralligiga erishish uchun 341 mlrd AQSh dollari miqdoridagi investitsiyalar talab etiladi (bu yiliga o'rtacha YalMning 3,8 foiziga teng). Taqqoslash uchun shuni qayd etish joizki, amaldagi siyosat davom ettirilgan taqdirda mamlakatdagi mavjud energetikaga bo'lgan talabni qondirish uchun ushbu sohaga 262 mlrd AQSh dollari miqdorida investitsiyalar jalb etilishi zarur bo'ladi (yiliga YalMning 2,9 foizi). Albatta, bunday katta hajmdagi investitsiyalarni sohaga xususiyl sektor va xorijiy investitsiyalarni jalb etmasdan amalga oshirish deyarli imkonsizdir.

Xorijiy adabiyotlarni tahlil qiladigan bo'lsak, yashil moliyalashtirishning samaradorligi ushbu tizimning mamlakatda mavjud boshqa moliyaviy va institutsional vositalar bilan qanchalik kuchli integratsiyalashganligiga bevosita bog'liqligini ko'rish mumkin.

Yashil moliyalashtirishning makroiqtisodiy ta'sirlari. Dastlab, yashil moliyalashtirishning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga, xususan iqtisodiy o'sishga ta'siri hamda issiqxona gazlari emissiyasining o'zgarish dinamikasini empirik jihatdan tahlil qilgan tadqiqotlarni ko'rib chiqamiz. Jahon bankining O'zbekiston iqtisodiy sektoriga oid tadqiqotlari natijalariga ko'ra, mamlakatning yashil iqtisodiyotga o'tish yo'li kuchli institutsional va moliyaviy islohotlarni talab etadi [1]. Hisobotda ta'kidlanishicha, O'zbekiston iqtisodiy o'sishi yuqori uglerod intensivligi bilan kechayotgan bo'lib, ushbu tendensiya o'zgarmagan taqdirda, asrning 60-yillariga kelib mamlakatdagi issiqxona gazlarining yillik emissiyasi ikki baravar oshishi kutilmoqda.

Energetika tizimi asosan qazib olinadigan energiya manbalariga tayanadigan hamda jadal iqtisodiy o'sishni maqsad qilib olgan O'zbekiston uchun innovatsion moliyalashtirish vositalaridan, xususan yashil moliyalashtirishdan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, uglerod intensivligi yuqori bo'lgan transport va energetika kabi sohalarda integratsiyalashgan moliyaviy platformaga bo'lgan ehtiyoj yuqori hisoblanadi.

O'zbekistondagi ushbu empirik natijalar noyob bo'lmay, mazkur yo'nalishdagi ko'plab xorijiy tadqiqotlar ham yuqoridagi xulosalarni qo'llab-quvvatlaydi. Xususan, Xitoyda olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, yashil kreditlar hajmining o'sishi sanoatda tub islohotlarga, jumladan yashil texnologiyalarni joriy etishga yo'l ochib bergan. 2008–2023-yillar oralig'ida yashil kreditlar hajmi keskin va uzluksiz o'sish tendensiyasini namoyon etib, ushbu davrda ularning miqdori 256 mlrd yuan darajasidan qariyb 27 trln yuangacha yetgan [2]. O'sish sur'atlari 2012-yilgacha nisbatan past bo'lgan bo'lsa-da, yashil o'tishni qo'llab-quvvatlovchi normativ-huquqiy bazaning kengayishi bilan yashil moliyalashtirish sezilarli darajada jadallashgan. Eng keskin o'sish 2020–2023-yillarga to'g'ri kelgan.

Xitoyda ushbu yo'nalishda olib borilgan yana bir tadqiqotda [3] yashil moliyalashtirishning makroiqtisodiy ta'siri hududlar kesimida turlicha ekanligi aniqlangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, yashil moliyalashtirish makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga sezilarli va ijobiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsa-da, ushbu ta'sirlar provinsiylar kesimida farqlangan. Bu farqlar, asosan, hududlardagi institutsional rivojlanish darajasi va moliya bozorlarining yetukligi bilan izohlangan. Demak, yashil moliyalashtirishning har qanday shaklda joriy etilishi avtomatik tarzda ijobiy natijalarga olib kelmaydi, balki muayyan institutsional shart-sharoitlarni talab etadi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, "yashil" iqtisodiyotga o'tish tamoyillari bo'yicha bir vaqtning o'zida "eng yaxshi" va "eng yomon" mamlakat sifatida tilga olinadigan Xitoy Xalq Respublikasida ham yashil



moliyalashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatning "eng yomon" deb baholanishiga sabab dunyo bo'yicha jami issiqxona gazlari emissiyasining deyarli uchdan bir qismini tashkil etishi bo'lsa [4], "eng yaxshi" deb e'tirof etilishiga sabab Xitoyning bugungi kunda quyosh panellari, shamol turbinalari hamda elektromobillar ishlab chiqarish bo'yicha dunyodagi yetakchi eksportyor hisoblanishidir.

Institutsional muhit va yashil moliyalashtirishning samaradorligi. Yashil moliyalashtirish amaliyotining samaradorligiga ta'siretuvchi institutsional omillarni tahlil qilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ushbu samaradorlik moliyaviy resurslarning hajmidan ko'ra, ularning samarali boshqarilishi, ya'ni fiskal siyosat, tartibga soluvchi mexanizmlar va monitoring tizimlari bilan uyg'unlashgan holda qo'llanilishiga bog'liq. Tadqiqotlarga ko'ra, G'arbiy Afrika mamlakatlarida [5] yashil moliyalashtirish an'anaviy moliyalashtirishga nisbatan samaraliroq ekanligi aniqlangan. Chunki an'anaviy moliyalashtirishda ekologik risklar kabi noaniqliklar yuqori bo'lsa, yashil moliyalashtirishda bunday noaniqliklar nisbatan kam bo'lib, moliyalashtirish jarayoniga bo'lgan qiziqish va samaradorlik yuqori bo'ladi.

Shuningdek, so'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra [6], yashil moliyalashtirishning samaradorligi bevosita mamlakat aholisi ekologik ongining rivojlanish darajasi bilan ham ijobiy bog'liqdir. Xususan, Z. Yulan tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalari yashil moliyalashtirishning xulq-atvor iqtisodiyoti bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi.

Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarga tayangan holda xulosa qilish mumkinki, yashil moliyalashtirish alohida instrument sifatida emas, balki muvofiqlashtirilgan institutsional arxitektura shaklida joriy etilgandagina samarali natijalarga erishish mumkin. Aks holda, yashil moliyalashtirishdagi noaniqliklar uning rivojlanishini sekinlashtirishi va hatto eng salbiy ssenariyda "yashil yuvish" (greenwashing) holatlariga olib kelishi ehtimoldan xoli emas.

Milliy taksonomiya va moliyaviy instrumentlar integratsiyasi. Yashil moliyalashtirishdagi eng muhim yo'nalishlardan biri — asosiy normativ-huquqiy hujjat hisoblangan milliy yashil iqtisodiyot taksonomiyasi bilan yashil moliyalashtirish instrumentlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilishdir. Xalqaro tajribaga ko'ra, yashil obligatsiyalar, yashil kreditlar hamda davlat budjeti xarajatlarini iqlim jihatidan markirovkalash kabi jarayonlar yagona mezon — milliy yashil iqtisodiyot taksonomiyasi asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Xususan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari tajribasi shuni ko'rsatadiki, yashil moliyalashtirishning barcha instrumentlaridan foydalanishda (yashil obligatsiyalar, yashil kreditlar, subsidiyalar, yashil budjetlashtirish amaliyotlari va boshqalar) yashil faoliyat turlarini aniqlash uchun kuchli, ilmiy asoslangan va aniq bayon etilgan Yevropa Ittifoqining barqaror moliyalashtirish taksonomiyasi (EU Sustainable Finance Taxonomy) asosiy mezon sifatida qo'llaniladi. Yashil budjetlashtirishni dastlabki bosqichda joriy etgan Fransiya tajribasi ham ushbu yondashuvning samaradorligini tasdiqlaydi [7].

Adabiyotlardagi bo'shliq va tadqiqotning ilmiy yangiligi. Yuqorida tahlil qilingan adabiyotlarga asoslanib aytish mumkinki, yashil moliyalashtirishning turli instrumentlaridan foydalanish hamda ularning samaradorlik va natijadorlikka ta'siri ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Biroq ushbu instrumentlarning yagona konseptual va institutsional arxitektura doirasida integratsiyalashuvi masalasi yetarli darajada o'rganilmagan. Ayniqsa, mazkur masalaning rivojlanayotgan davlatlar, xususan O'zbekiston misolida o'rganilishi tadqiqotning dolzarbligini yanada oshiradi.

Shu asosda, O'zbekistonda integratsiyalashgan yashil moliyalashtirish arxitekturasini shakllantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yashil moliyalashtirishning samaradorligini oshirish uchun milliy yashil taksonomiya, davlat va xususiy moliyaviy oqimlar, raqamli monitoring tizimlari hamda uglerod narxlash mexanizmlarini yagona model doirasida muvofiqlashtirish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarbdur. Mazkur tadqiqot aynan ushbu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, O'zbekiston sharoitida integratsiyalashgan yashil moliyalashtirish arxitekturasining konseptual modelini ishlab chiqishni maqsad qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda O'zbekistonda yashil moliyalashtirish tizimi sifatga asoslangan tahlil asosida o'rganiladi. Tahlillar internetdagi ochiq manbalarda keltirilgan rasmiy statistik ma'lumotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda xalqaro moliya tashkilotlari hisobotlari asosida amalga oshiriladi.

Tadqiqot doirasida O'zbekistonda yashil moliyalashtirish yo'nalishida amalga oshirilayotgan ishlar va mavjud moliyaviy instrumentlar, jumladan milliy yashil taksonomiya, yashil obligatsiyalar, davlat budjetini iqlim jihatidan markirovkalash tizimi, bank kreditlari hamda xalqaro moliyalashtirish instrumentlari hujjatli tahlil usuli orqali o'rganiladi, aniqlangan kamchiliklar asosida tegishli takliflar ishlab chiqiladi.

Shuningdek, tadqiqotda yashil moliyalashtirish amaliyotining xorijiy tajribasi, ushbu yo'nalishda xorijda olib borilgan tadqiqotlarning empirik natijalari hamda O'zbekistondagi mavjud statistik ma'lumotlar asosida deskriptiv tahlillar amalga oshiriladi. Olingan empirik va institutsional dalillar asosida O'zbekiston sharoitiga mos Integratsiyalashgan yashil moliyalashtirish arxitekturasining konseptual modelini ishlab chiqish bo'yicha



takliflar tayyorlanadi. Ushbu model tizimli yondashuv asosida uch asosiy element — milliy yashil taksonomiya, Milliy yashil iqtisodiyot jamg'armasi va raqamli monitoring platformasi — o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ifodalaydi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda O'zbekistonda yashil moliyalashtirishning bir nechta asosiy instrumentlari, xususan yashil budjetlashtirish (o'rganilayotgan holda dastlabki bosqichda davlat budjetini iqlim jihatidan tamg'alash, keyinroq esa yashil budjetlashtirish ko'rinishida namoyon bo'ladi), yashil obligatsiyalar va yashil kreditlar amaliyotga joriy qilingan.

**Yashil obligatsiyalar.** 2023-yilda MDH davlatlari o'rtasida ilk bor O'zbekiston tomonidan 4,25 trln so'm miqdoridagi yashil suveren xalqaro obligatsiyalar hamda 660 mln dollar miqdoridagi xalqaro obligatsiyalar London fond birjasida joylashtirildi [8]. Biroq ushbu obligatsiyalarni birjaga joylashtirishda yoki hisobotlarni tayyorlash jarayonida milliy yashil taksonomiya mezonlaridan foydalanilmagan. Mazkur obligatsiyalar xorijiy yashil taksonomiyalar (Yevropa Ittifoqining barqaror yashil taksonomiyasi asosida bo'lishi mumkin) asosida tasniflangan bo'lsa-da, ular milliy yashil taksonomiya mezonlari bilan integratsiyalashmagan.

**Yashil budjetlashtirish amaliyotiga ilk qadamlar.** O'zbekistonda davlat tomonidan amalga oshiriladigan eng muhim yashil moliyalashtirish instrumentlaridan biri — “yashil budjetlashtirish” amaliyotini joriy etish Markaziy Osiyo davlatlari ichida birinchilardan bo'lib amalga oshirilmoqda. Xususan, “yashil budjetlashtirish” amaliyotidagi birinchi qadam hisoblangan davlat budjeti xarajatlarini yashil tamoyillar asosida markirovkalash amaliyoti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 1-maydagi “Davlat budjeti xarajatlarining barqaror rivojlanish milliy maqsadlariga muvofiqligi va iqlim o'zgarishiga ta'sirini ko'rsatib borish (markirovkalash) mexanizmlarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 257-sonli<sup>1</sup> qarori bilan tasdiqlangan.

Ushbu qarorga asosan davlat budjeti xarajatlarining iqlim o'zgarishi muammolariga (xususan iqlim o'zgarishini yumshatish va unga moslashishga) qanday ta'sir ko'rsatishi (markirovkalash) aniqlashtirib o'tilgan. Qaror bilan tasdiqlangan konsepsiyaga muvofiq, davlat budjeti xarajatlarini tasniflashning maqsadi, obyekti va qamrovi, shuningdek xarajatlarni aniqlash va baholashning uslubiy yondashuvlari belgilangan. Shuni qayd etish kerakki, O'zbekistonda hali dasturiy budjetlashtirish to'liq joriy etilmaganligi sababli davlat konsolidatsiyalashgan budjetining faqat birinchi bo'g'ini — respublika budjeti xarajatlari markirovkalanishi belgilangan.

Shuningdek, ushbu qaror orqali davlat budjetining shaffofligi va oshkoraligini, xalq oldida hukumatning hisobdorligini oshirish ham eng asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilangan. Qarorning pirovard maqsadi keyingi bosqichlarda “yashil budjetlashtirish” amaliyotini to'liq joriy etishdan iborat.

“Iqlim o'zgarishi sohasida davlat xarajatlari va institutsional tahlil: O'zbekiston” hisobotiga ko'ra [9], jami davlat budjeti xarajatlari 2020-, 2021- va 2022-yillar kesimida mos ravishda 144,1; 188,3 va 236,6 trln so'mni tashkil qilgan (1-jadval). Ushbu yillarda iqlimga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan xarajatlarning budjet xarajatlaridagi ulushi mos ravishda 10,3 foiz; 8,9 foiz va 11,1 foizni tashkil etgan. Bu raqamlardan 2021-yilda budjetning iqlim o'zgarishi xarajatlariga nisbatan xarajatlari kamayib ketgandek ko'rinsa-da, aslida 2021-yilda iqlimga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan xarajatlarning budjet xarajatlaridagi ulushi keskin kamayishi budjet xarajatlarining 31 foizga oshgani bilan izohlanadi. Iqlimga ijobiy xarajatlarning 2020-, 2021- va 2022-yillardagi YalMdagi ulushi mos ravishda 2,5 foiz; 2,3 foiz va 3,0 foizga teng. Bu yerda ham 2,5 foizdan 2,3 foizga kamayish iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish uchun davlat xarajatlari o'zgarish dinamikasining YalM o'zgarish dinamikasidan pastroq bo'lgani bilan tushuntiriladi.

1-jadval. Budjet xarajatlarining iqlimga ijobiy ta'sir dinamikasi<sup>2</sup>

| O'zgaruvchilar                                                                                | 2020      | 2021      | 2022      |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------|-----------|-----------|-----------|
| Davlat budjeti xarajatlari, jami (milliard so'm)                                              | 144 143,0 | 188 257,0 | 236 579,0 |
| Iqlimga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan xarajatlari, jami (mlrd so'm)                             | 14 878,9  | 16 809,8  | 26 302,4  |
| YAIM (milliard so'm)                                                                          | 602 193,0 | 738 425,0 | 888 342,0 |
| Iqlimga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan xarajatlari (jami budjet xarajatlariga foiz ko'rinishida) | 10,3%     | 8,9%      | 11,1%     |

1 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 1-maydagi “Davlat budjeti xarajatlarining barqaror rivojlanish milliy maqsadlariga muvofiqligi va iqlim o'zgarishiga ta'sirini ko'rsatib borish (markirovkalash) mexanizmlarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 257-sonli qarori: <https://lex.uz/ru/docs/-6907042>

2 Manba: “Iqlim o'zgarishi sohasida davlat xarajatlari va institutsional tahlil: O'zbekiston” hisoboti asosida muallif tomonidan tayyorlandi <https://www.undp.org/uz/uzbekistan/publications/iqlim-ozgarishi-boyicha-davlat-xarajatlari-va-institutsional-baholash-ozbekiston>





|                                                                                               |      |        |        |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------|------|--------|--------|
| Iqlimga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan xarajatlar (YAIM foizi ko'rinishida)                      | 2,5% | 2,3%   | 3,0%   |
| Davlat budjeti xarajatlari, jami, yillar kesimida foiz ko'rinishidagi o'zgarish               | –    | 130,6% | 125,7% |
| Iqlimga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan xarajatlar, yillar kesimida foiz ko'rinishidagi o'zgarish | –    | 113,0% | 156,5% |

Shuni qayd etish kerakki, keltirilgan statistik ma'lumotlar (2-jadval) iqlimga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan davlat xarajatlari tuzilmasida moslashish chora-tadbirlari mutlaq ustunlik qilayotganini yaqqol ko'rsatadi. Xususan, 2020–2022-yillarda iqlim o'zgarishiga moslashish xarajatlari jami iqlim xarajatlarning 95–97 foizini tashkil etgan bo'lib, ularning hajmi 2020-yildagi 14,3 trln so'mdan 2022-yilda 25,4 trln so'mga yetgan. Ushbu o'sish, avvalo, suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, tuproq sho'rlanishini kamaytirish kabi O'zbekiston sharoitida iqlim xatarlariga bevosita javob beruvchi yo'nalishlarga ustuvor e'tibor qaratilayotganini anglatadi. Mazkur yondashuv qisqa va o'rta muddatda iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini yumshatish, ayniqsa qishloq xo'jaligi va suv ta'minoti barqarorligini saqlab qolish nuqtayi nazaridan mantiqan asosli hisoblanadi.

Shu bilan birga, iqlim o'zgarishini yumshatish va aralash ta'sir choralari ulushi nisbatan past darajada qolmoqda. 2022-yilda yumshatish xarajatlari jami iqlim xarajatlarning atigi 2,3 foizini, aralash choralari esa 1,0 foizini tashkil etgan. Bunga bir tomondan emissiyalarni cheklash asosan ma'muriy tartibga solish — ruxsat etilgan maksimal standartlar orqali amalga oshirilayotgani, ikkinchi tomondan esa qayta tiklanuvchi energetika loyihalarining ko'p hollarda davlat-xususiy sheriklik asosida, budjetdan tashqari moliyalashtirilayotgani sabab bo'lmoqda. Biroq 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan issiqxona gazlari emissiyasini 35 foizga kamaytirish maqsadi hamda 2022–2026-yillarda MRV infratuzilmasi, uglerod birliklari reyestri, shuningdek tarmoqlar kesimida emissiyani qisqartirish ko'rsatkichlarini joriy etish rejalari kelgusida yumshatish choralari rolini oshirishi kutilmoqda. Natijada, o'rta muddatda iqlim xarajatlari tarkibida moslashish ustuvorligi saqlangan holda, emissiyani kamaytirishga qaratilgan xarajatlar ulushi ham bosqichma-bosqich kengayishi mumkin.

## 2-jadval. Iqlim o'zgarishini yumshatish va moslashish xarajatlari<sup>3</sup>

| O'zgaruvchilar                                                 | 2020     | 2021     | 2022     |
|----------------------------------------------------------------|----------|----------|----------|
| Iqlim o'zgarishini yumshatish (milliard so'm)                  | 205,1    | 535,3    | 612,7    |
| Iqlim o'zgarishiga moslashish (milliard so'm)                  | 14 264,8 | 15 966,3 | 25 414,8 |
| Aralash ta'sir (milliard so'm)                                 | 409,0    | 308,3    | 274,8    |
| Iqlim o'zgarishi uchun dolzarb choralari, jami (milliard so'm) | 14 878,9 | 16 809,8 | 26 302,4 |
| Iqlim o'zgarishini yumshatish (foizda)                         | 1,4      | 3,2      | 2,3      |
| Iqlim o'zgarishiga moslashish (foizda)                         | 95,9     | 95,0     | 96,6     |
| Aralash ta'sir (foizda)                                        | 2,7      | 1,8      | 1,0      |

Biroq shuni ta'kidlab o'tish kerakki, yuqorida tahlil qilinganidek, davlat budjetini iqlim jihatidan tamg'alash va yashil obligatsiyalarni chiqarish amaliyotlarida milliy yashil taksonomiya mezonlaridan foydalanilmagan, aksincha har ikkala holatda ham turli metodologiyalardan foydalanilgan. Xususan, hozirda yashil budjetlashtirish amaliyoti davlat budjeti xarajatlarning barqaror rivojlanish maqsadlariga qanchalik mosligi hamda uning mohiyatidan kelib chiqqan holda amalga oshirilmoqda.

Hozirda, ya'ni dastlabki bosqichlarda, yashil budjetlashtirish amaliyoti doirasida davlat xarajatlari barqaror rivojlanish maqsadlariga qanchalik mos yoki nomos ekanligi bo'yicha markirovkalash muayyan darajada maqbul bo'lishi mumkin. Biroq ushbu yondashuv asosida moliyalashtirish yoki umumiy qilib aytganda, har qanday iqtisodiy faoliyatni milliy yashil taksonomiyadan xoli tarzda tasniflash va moliyalashtirish maqbul usul hisoblanmaydi. Bizning fikrimizcha, har qanday iqtisodiy faoliyatning "yashil iqtisodiy" faoliyat ekanligi (yoki emasligi) ilmiy asoslarga tayanadigan yagona milliy taksonomiya asosida tasniflanishi maqsadga muvofiqdir. Aks holda, yashil moliyalashtirish instrumentlarining yagona milliy taksonomiya asosida moliyalashtirilmasligi yashil moliyalashtirish tizimida fragmentatsiyalashuvga olib keladi.

3 Manba: "Iqlim o'zgarishi sohasida davlat xarajatlari va institutsional tahlil: O'zbekiston" hisoboti asosida muallif tomonidan tayyorlandi <https://www.undp.org/uz/uzbekistan/publications/iqlim-ozgarishi-boyicha-davlat-xarajatlari-va-institutsional-baholash-ozbekiston>



Shu sababli O'zbekistonda integratsiyalashgan yashil moliyalashtirish arxitekturasini yaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Xorij tajribalari shuni ko'rsatadiki, mamlakat ichidagi yashil moliyalashtirish bilan bog'liq barcha vositalar yagona yashillik tamoyillari va mezonlari — milliy yashil taksonomiya orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Milliy yashil taksonomiya. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-oktabrdagi "Milliy "yashil" iqtisodiyot taksonomiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 561-sonli<sup>4</sup> qarori tasdiqlandi. Mamlakatda yagona milliy taksonomiyaning joriy etilishi yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida, xususan "yashil moliyalashtirish" uchun eng muhim institutsional va huquqiy asos hisoblanadi. Biroq amaldagi taksonomiya keng qamrovli bo'lishiga qaramasdan, metodologik aniqligi yetarli emas hamda har bir iqtisodiy faoliyat turini qamrab olishi nuqtayi nazaridan takomillashtirishga muhtoj. Milliy taksonomiyaning xalqaro amaliyot bilan uyg'unlashmaganligi va noaniqliklarning ko'pligi, bir tomondan, mamlakatimizda yashil moliyalashtirish uchun to'siq bo'lsa, ikkinchi tomondan xorijiy yashil investitsiyalarni jalb etish uchun salbiy signal bo'lishi mumkin.

O'zbekistonda yashil moliyalashtirishning fragmentatsiyalashuvi nafaqat yashil moliyalashtirish instrumentlari orasidagi uzilishlar va yashil taksonomiya bilan integratsiyalanishdagi muammolarda namoyon bo'ladi, balki moliyaviy resurslarni shakllantirish va taqsimlash jarayonlarida ham kuzatilmoqda. Hozirda mamlakatimizda yashil iqtisodiy faoliyatlarni moliyalashtirish tijorat banklari, xalqaro moliya institutlari va donor grantlari orqali alohida platformalarda yoki dasturlarda amalga oshirilmoqda. Bu manbalar o'rtasida yagona muvofiqlashtiruvchi institutning mavjud emasligi yashil moliyaviy oqimlarning ustuvor yo'nalishlar bo'yicha jamlanmasligiga va resurslardan foydalanish samaradorligining pasayishiga olib kelmoqda.

Yashil moliyalashtirishda kuchli institutsional integratsiyalashuv tizimining o'zi yetarli bo'lmay, moliyaviy oqimlarning shaffof va izchil monitoring qilinishi, xalq oldida doimiy hisobdorlikni ta'minlash, shuningdek xalqaro va milliy investorlarni jalb etadigan yagona shaffof platformaning mavjudligi ham muhim sanaladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, so'nggi yillarda O'zbekistonda yashil moliyalashning turli ko'rinishlari, xususan yashil obligatsiyalar, yashil kreditlar va davlat budjetini iqlim jihatidan tamg'alash amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, ular yagona institutsional va metodologik arxitektura doirasida o'zaro integratsiyalashmagan. Boshqacha qilib aytganda, O'zbekistonda yashil obligatsiyalar va yashil budjetlashtirish amaliyotlari turli metodologiyalar asosida amalga oshirilmoqda va ular milliy yashil taksonomiya bilan bog'lanmagan. Natijada, bir xil iqtisodiy faoliyat turlari turli moliyaviy instrumentlar doirasida "yashil" sifatida har xil mezonlar asosida baholanmoqda.

Ushbu holat yashil moliyaviy oqimlarning fragmentatsiyalashuviga, ya'ni yashil resurslarning yagona ustuvorliklar va mezonlar asosida jamlanmasdan, alohida-alohida va o'zaro muvofiqlashtirilmagan yo'nalishlarda taqsimlanishiga olib kelmoqda. Bu esa moliyaviy resurslarning iqlim maqsadlariga erishishdagi umumiy samaradorligini pasaytiradi hamda monitoring va hisobdorlikni murakkablashtiradi.

Yuqoridagi tahlillarga ko'ra, hozirda yashil obligatsiyalar, yashil budjetlashtirish xarajatlari (daromadlar hali ochiq ko'rsatilmagan bo'lib, uglerod narxlash mexanizmi joriy qilinganidan keyin bu ham muhim bo'ladi) yoki yashil kreditlar haqida turli hisobotlardan ma'lumotlarni olish mumkin, biroq bularning barchasi yagona platformaga jamlanmagan.

Bu muammolarning yechimi sifatida yashil moliyalashning barcha turlari, jumladan yashil obligatsiyalar, yashil budjet xarajatlari va daromadlari, milliy va xorijiy investorlarning yashil moliyalash jarayonlari haqidagi ma'lumotlar yashil iqtisodiyot tarmoqlari kesimida hamda real vaqt rejimida ko'rsatib boriladigan platformaning tashkil etilishi mamlakatdagi yashil moliyalash ko'lamini oshiradi. Bu platforma O'zbekistonda yashil moliyalashning shaffofligini ta'minlab, xorijiy yashil investitsiyalarni jalb qilishga xizmat qiladi.

Shuningdek, yuqorida tahlil qilganimizdek, O'zbekistonda yashil moliyaviy resurslar banklar, donorlar va xalqaro institutlar orqali alohida boshqarilayotgan bo'lib, yagona muvofiqlashtiruvchi mexanizm yo'qligi ularning samarali jamlanishiga to'sqinlik qilmoqda.

Yuqoridagi muammoni yechish maqsadida Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan boshqariladigan Milliy Yashil Iqtisodiyot Jamg'armasini tashkil etish maqsadga muvofiq. Mazkur jamg'arma davlat budjeti, yashil obligatsiyalar, xalqaro moliyaviy institutlar va xususiy investorlardan jalb etiladigan resurslarni yagona portfel doirasida jamlab, ularni milliy yashil taksonomiya asosida tasniflangan loyihalarga yo'naltirish vazifasini bajaradi.

Bunday institutsional mexanizm yashil moliyalashtirishda "moliyaviy vositachi" rolini bajarib, davlat tomonidan beriladigan subsidiya va kafolatlarni xususiy va xalqaro kapitalni jalb qilish uchun rag'batlantiruvchi sifatida ishlatish imkonini yaratadi. Natijada cheklangan budjet resurslari hisobiga ancha katta hajmdagi yashil investitsiyalarni safarbar etish mumkin bo'ladi.

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-oktabrdagi "Milliy "yashil" iqtisodiyot taksonomiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 561-sonli qarori: <https://lex.uz/docs/-6644013>



Shu tariqa, yashil moliyalashtirishning tasnifi (taksonomiya), moliyalashtirilishi (Jamg'arma) va monitoringi (raqamli platforma) yagona integratsiyalashgan arxitektura doirasida birlashtirilsa, O'zbekistonda yashil moliyalashtirish tizimi fragmentatsiyadan holi bo'lgan, samarali va investitsiyalarni jalb qiluvchi barqaror mexanizmga aylanishi mumkin. Bu esa mamlakatning 2030-yilgacha bo'lgan iqlim va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish jarayonini sezilarli darajada tezlashtiradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Jahon banki. Uzbekistan Country Climate and Development Report (CCDR). 2023. Internet manbasi: <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/publication/ccdr>
2. Xiaocai Zhu va boshqalar. Short-Term Gains or Long-Term Returns? Green Finance and the Sustainable Development of Heavily Polluting Enterprises. Finance Research Letters. DOI: <https://doi.org/10.1016/j.frl.2025.109368>, 2025.
3. Jing Zhou va boshqalar. The Impact of Green Finance on Economic Growth and Environmental Quality. Finance Research Letters, Volume 87. DOI: <https://doi.org/10.1016/j.frl.2025.109087>, 2026.
4. Xalqaro energetika agentligi. How Much CO<sub>2</sub> Does China Emit? 2025. Internet manbasi: <https://www.iea.org/countries/china/emissions> (murojaat qilingan sana: 2025-yil 8-noyabr).
5. J. Adeyemi. Enhancing Sustainable Development in West Africa Despite Uncertainty: The Transformative Potential of Green Financing. Journal of Climate Finance, 13-jild, 2025.
6. Z. Yulan va boshqalar. Green Finance as a Catalyst: Driving Embodied Carbon Efficiency in Infrastructure Development. Finance Research Letters, 86-jild. DOI: <https://doi.org/10.1016/j.frl.2025.108854>, 2025.
7. European Commission. Green Budgeting. 2023. Internet manbasi: [https://commission.europa.eu/projects/green-budgeting\\_en](https://commission.europa.eu/projects/green-budgeting_en) (murojaat qilingan sana: 2025-yil 15-dekabr).
8. Hukumat portali. O'zbekiston Respublikasi ilk marta milliy valyutada "yashil" maqomiga ega suveren xalqaro obligatsiyalarni joylashtirdi. 2023. Internet manbasi: <https://gov.uz/oz/news/view/3061> (murojaat qilingan sana: 2025-yil 26-dekabr).
9. Jahon banki. Iqlim o'zgarishi sohasida davlat xarajatlari va institutsional tahlil: O'zbekiston. 2023. Internet manbasi: <https://www.undp.org/uz/uzbekistan/publications/iqlim-ozgarishi-boyicha-davlat-xarajatlari-va-institutsional-baholash-ozbekiston> (murojaat qilingan sana: 2025-yil 15-dekabr).



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2026. № 1

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>